

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**X RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATION G'OYA
VA YECHIMLAR**

NOYABR, 2025



ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**X RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, noyabr

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
X Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 10-son (noyabr, 2025-yil). – 33 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 17-noyabr

Mas'ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi X Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Orifboyev Abdullaxon

TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH SOHASIDA XALQARO TASHKILOTLAR BILAN
HAMKORLIKNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 4-7

TARIX FANLARI

Ungboyeva Barno

O'ZBEKISTONDAGI XUSUSIY KINOSTUDIYALAR FAOLIYATI8-12

Norov Shuhrat

HUDUDLARDA YOSHLARNING IJTIMOIIY VA IQTISODIY FAOLLIGI (ZARAFSHON VOHASI
VILOYATLARI MISOLIDA) 13-16

YURIDIK FANLAR

Abdullaeva Sabokhat

FATF STANDARDS AND THE IMPLEMENTATION OF THE TRAVEL RULE IN PREVENTING
CRYPTO-RELATED MONEY LAUNDERING 17-24

PEDAGOGIKA FANLARI

Толибова Феруза

ИГРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК СРЕДСТВО ПОВЫШЕНИЯ МОТИВАЦИИ И УСПЕВАЕМОСТИ
ПРИ ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА 25-32

TEXNIKA FANLARI

TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH SOHASIDA XALQARO TASHKILOTLAR BILAN HAMKORLIKNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Orifboyev Abdullaxon Asadullo o'g'li

O'zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligi Xalqaro hamkorlik va integratsiya boshqarmasi boshlig'i

Tel: +998 97 140 50 68

Email: abdullo1978@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada texnik jihatdan tartibga solish sohasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Jahon savdo tizimining zamonaviy talablari, standartlashtirish va muvofiqlikni baholash jarayonlarida xalqaro tajribani milliy amaliyotga integratsiya qilishning dolzarbligi ilmiy asosda yoritilgan. Maqolada ISO, IEC, Codex Alimentarius, OIML va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikning amaldagi mexanizmlari, O'zbekistonning texnik reglamentlar tizimi uchun ularning ahamiyati, hamda integratsiya jarayonida uchrayotgan institutsional va huquqiy muammolar tahlil qilingan. Shuningdek, sohadagi raqobatbardoshlikni oshirish, texnik to'siqlarni kamaytirish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish va xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan. Tahlil natijalari texnik jihatdan tartibga solish tizimining barqaror rivojlanishida global hamkorlikning strategik ahamiyatga egaligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Texnik jihatdan tartibga solish; xalqaro tashkilotlar; standartlashtirish; muvofiqlikni baholash; ISO; IEC; Codex Alimentarius; OIML; integratsiya; eksport; milliy standartlar tizimi.

ENHANCING COOPERATION WITH INTERNATIONAL ORGANIZATIONS IN THE FIELD OF TECHNICAL REGULATION

Orifboev Abdullakhon Asadullo ugli

Head of the Department for International Cooperation and Integration Technical Regulation Agency of the Republic of Uzbekistan

Annotation. This article examines the issues related to enhancing cooperation with international organizations in the field of technical regulation. It highlights the relevance of integrating international experience into national practices of standardization and conformity assessment within the modern global trading environment. The study analyzes the existing mechanisms of cooperation with ISO, IEC, Codex Alimentarius, OIML, and other international bodies, as well as their significance for Uzbekistan's system of technical regulations. Institutional and legal challenges encountered during the integration process are also assessed. Based on the findings, the article proposes recommendations aimed at improving competitiveness, reducing technical barriers, expanding export potential, and fostering the production of goods that comply with international standards. The results emphasize the strategic importance of global cooperation for the sustainable development of the technical regulation system.

Keywords: Technical regulation; international organizations; standardization; conformity assessment; ISO; IEC; Codex Alimentarius; OIML; integration; export; national standardization system.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymdif-y2025v1i10/n01>

Kirish

Jahon iqtisodiyotida standartlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish sohasi raqobatbardoshlikning strategik omili sifatida tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro savdo hajmining oshib borishi, milliy bozorlarning ochiqlashuvi, innovatsion texnologiyalarning tez sur'atlarda rivojlanishi texnik reglamentlar, standartlar va muvofiqlikni

baholash tizimlarini global miqyosda uyg'unlashtirishni talab qilmoqda. Mahsulot va xizmatlarning sifatini ta'minlash, xavfsizlik darajasini kafolatlash, texnik to'siqlarni kamaytirish va xalqaro bozorlarga integratsiyalash uchun davlatlar xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikni chuqurlashtirishga muhtoj bo'lib bormoqda.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi global tashkilotlar — ISO [1], IEC [2], OIML [3], WTO TBT qo'mitasi [4] — xalqaro standart yaratish, texnik to'siqlarni qisqartirish, muvofiqlikni baholash tizimlarini birxillashtirishda markaziy o'rin tutadi. Ushbu tashkilotlar bilan hamkorlikni takomillashtirish mamlakatlarga eksport salohiyatini oshirish, ichki bozorda raqobat muhitini yaxshilash, texnologik modernizatsiyani tezlashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, O'zbekiston kabi global bozorlarga integratsiya jarayoni faol kechayotgan davlatlar uchun xalqaro standartlashtirish jarayonlarida ishtirok etish strategik zaruratga aylanmoqda.

Mavzuning dolzarbligi xalqaro integratsiyaning yangi bosqichida texnik reglamentlar, standartlar va muvofiqlikni baholash mexanizmlari milliy iqtisodiyot barqarorligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatayotgani bilan bog'liq. Bundan tashqari, ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilar uchun belgilangan texnik talablarning xalqaro mezonlarga mos emasligi tashqi bozorlarga chiqishda jiddiy to'siqlar yaratadi. Shu sababli, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni takomillashtirish, ilg'or tajribalarni joriy etish, texnik siyosatni modernizatsiya qilish va milliy qonunchilikni xalqaro normalarga uyg'unlashtirish ustuvor vazifalardan biridir.

Ushbu maqolada texnik jihatdan tartibga solish sohasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikning mavjud holati tahlil qilinadi, hamkorlikni chuqurlashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar berildi va global standartlashtirish jarayonlarida faol ishtirok etish uchun institutsional va tashkiliy mexanizmlar atroflicha yoritiladi.

Usullar

Tadqiqotda xalqaro tashkilotlar faoliyatini o'rganish, milliy texnik jihatdan tartibga solish tizimi va uning institutsional asoslarini tahlil qilish, ilg'or xorijiy amaliyotlarni solishtirma tahlil qilishdan iborat uslubiy yondashuvlar qo'llanildi. Xalqaro standartlashtirish tashkilotlarining rasmiy hujjatlari, qo'mita bayonnomalari, ISO va IEC texnik qo'mitalari materiallari, WTO TBT qo'mitasi yillik hisobotlari, shuningdek, milliy texnik reglamentlar va davlat standartlari tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy-mantiqiy tahlil, muammo-maqсадli yondashuv, normativ-huquqiy tahlil, funksional tahlil, kontent taxlil va xalqaro tajribani modellashtirish kabi usullardan foydalanildi. Shu bilan birga, Yevropa Ittifoqi, AQSh, Janubiy Koreya, Turkiya, Yaponiya va YeOTT mamlakatlarining texnik tartibga solish siyosati hamda standartlashtirish tizimlari o'rganildi.

Mavjud muammolar va imkoniyatlar xalqaro ekspertlarning ilmiy ishlari, BMT ixtisoslashgan agentliklari hisobotlari va OESR ma'lumotlari asosida baholandi. Metodologik baza sifatida milliy texnik reglamentlar tizimini modernizatsiya qilish masalalari bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar ham qo'llanildi.

Natijalar

Tahlillar xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikning bir qator muhim yo'nalishlarda rivojlanayotganini, ammo tizimli muammolar ham mavjudligini ko'rsatdi. ISO va IEC texnik qo'mitalarida ishtirok darajasi hali past bo'lib, milliy standartlar fondida xalqaro standartlar ulushi yetarli emas. Muvofiqlikni baholash infratuzilmasi yetarlicha raqobatga asoslanmagan,

laboratoriyalar akkreditatsiyasida xalqaro o'zaro tan olish mexanizmlarining qamrovi cheklangan. Bu esa tashqi bozorlarga kirishda texnik to'siqlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Xalqaro tajriba bilan taqqoslash shundan dalolat beradiki, samarali texnik tartibga solish tizimlari doimo xalqaro standartlashtirish jarayonlarida faol ishtirok etuvchi davlatlarga xosdir. YeStda texnik reglamentlar birlashgan, ISO va IEC standartlariga muvofiqlashtirilgan, muvofiqlikni baholash institutlari ILAC, IAF kabi xalqaro tashkilotlar bilan chuqur integratsiyalashgan. Koreyada milliy standartlarni yaratishda ISO/IEC texnik qo'mitalaridagi mutaxassislar ishtirokini strategik vazifa sifatida belgilashgan.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish quyidagi natijalarga olib keladi:

- milliy texnik reglamentlarni xalqaro mezonlarga uyg'unlashtirish orqali mahsulot xavfsizligini oshirish;
- mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun eksport yo'lidagi texnik to'siqlarni kamaytirish;
- innovatsion texnologiyalar va standartlarni tez joriy etish imkoniyati;
- muvofiqlikni baholash tizimining xalqaro tan olinishi;
- regulyator faylasufiyasining zamonaviy risk-orientirlangan modelga o'tishi.

Muhokama

Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirishda asosiy muammolar institutsional va kadrlar salohiyati bilan bog'liq. ISO va IEC texnik qo'mitalarida doimiy ekspertlar yetishmasligi, milliy standartlar joyidagi ilmiy-texnik bazaning zaifligi, raqamlashtirilgan standartlashtirish jarayonlarining kam rivojlangani muhim to'siqlar sifatida qayd etiladi.

Monitoring jarayonlari shuni ko'rsatadiki, milliy standartlarni qabul qilishda ko'pincha tarjimaviy yondashuv ustun, amalda esa xalqaro qo'mita muhokamalarida ishtirok etish, standartlarni ishlab chiqish jarayonida milliy manfaatlarni ilgari surish yetarlicha ta'minlanmagan. Bu esa xalqaro standartlarning qabul qilinishida passiv ishtirokga olib keladi.

Mamlakatlardagi ilg'or tajriba xalqaro hamkorlikni kengaytirish uchun institutsional modellardan foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Masalan, Koreyada standartlashtirish agentliklari olimlar, biznes va sanoat vakillaridan tashkil topgan doimiy texnik komitetlar orqali ISO/IEC komissiyalarida milliy pozitsiyani ilgari suradi. Turkiyada TSE [5] tashkiloti har bir xalqaro komissiya bo'yicha ekspertlar pultini shakllantirgan. YeOTT mamlakatlarida texnik reglamentlar yagona bozor prinsipiga muvofiq yaxlit qabul qilinadi.

Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirishda quyidagi muammolar ilmiy tahlilda muhim deb topildi:

- standartlashtirish jarayonlarining raqamlashtirilmaganligi;
- ISO/IEC texnik qo'mitalarida ishtirok uchun moliyaviy mexanizmlar yetishmasligi;
- muvofiqlikni baholash infratuzilmasining yetarlicha diversifikatsiya qilinmagani;
- kadrlar malakasi xalqaro darajadan ortda qolayotgani.

Shu bilan birga, tahlillar xalqaro hamkorlikni kengaytirishning yangi imkoniyatlari mavjudligini ham ko'rsatdi. ITU dasturlari doirasida raqamli standartlar yaratish, ISO SMART standartlar yoriqnomalari, Codex Alimentarius xavfsizlik standartlari, OIML bilan o'zaro tan olish mexanizmini joriy etish kabi yo'nalishlar mamlakat uchun yangi istiqbollarni ochadi.

Xulosa

Texnik jihatdan tartibga solish sohasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi, eksport salohiyatining oshishi, mahsulot

xavfsizligi va sifati kafolatlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tahlillar xalqaro standartlashtirish jarayonlarida faol ishtirok etish texnik to'siqlarni kamaytirishi, texnologik modernizatsiyani jadallashtirishi va bozor raqobatbardoshligini oshirishini ko'rsatdi.

Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada takomillashtirish uchun institutsional mexanizmlarni kuchaytirish, ISO/IEC texnik qo'mitalarda milliy ishtirokni kengaytirish, muvofiqlikni baholash tizimini xalqaro tan olish talablariga moslashtirish, kadrlar salohiyatini oshirish va raqamli standartlashtirish platformalarini joriy etish zarur.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. ISO. International Organization for Standardization. Annual Report. Geneva, 2023.
2. IEC. International Electrotechnical Commission. Standardization Strategy 2022–2030. Geneva, 2022.
3. OIML. International Vocabulary of Metrology. Paris, 2021.
4. WTO. Technical Barriers to Trade Committee. Annual Review. Geneva, 2023.
5. TSE (Turkish Standards Institution). International Cooperation Reports. Ankara, 2021.

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**
X RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, noyabr

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
X Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 10-son (noyabr, 2025-yil). – 33 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 17-noyabr

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.